




BUXORO VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

BUXORO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022- YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)




Tel.: 65-220-83-06

www.buxstat.uz


2022- yil yanvar-avgust oylarida



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 15 971,1 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-avgust oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,6 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 14 540,3 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 91,1 % ni tashkil etdi.



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili shlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 1,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 109,5 % ga, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 8,5 % ga oshganidir. Shuningdek, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash utilizatsiya qilishda – 40,5 % ga pasayish kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 654,6 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini tashkil etdi.



2022- yil yanvar-avgust oylarida
O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da



Oltinugurt



Gips



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Oltinugurt, t.	774,0	1 209,0	435,0
Gips, t.	163 741,0	135 622,0	- 28 119,0




Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari



Sanoat mahsulotlari	2021- yil, yanvar-avgust	2022- yil yanvar-iyul	Farqi +/-
Neft va tabiiy gaz qazib olish bilan bog'liq burg'ulash xizmatlari, mln. so'm	105 520,1	102 410,5	- 3 109,6


2022- yil yanvar-avgust oylarida



2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 14 540,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 91,1 % ini tashkil etdi.




O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 2,1 % (1,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 56,3 % (54,0 %) va quyi texnologiyalisi – 41,5 % (44,0 %) ni tashkil etdi.



Jami sanoat tarkibida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 44,4 % (2021- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 105,3 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi – 21,3 % (2021- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 104,0 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi –15,4 % (2021- yil yanvar-avgust oyiga nisbatan fizik hajm indeksi – 101,0 %) ni tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Shuningdek, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 63,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 2,0 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 100,7 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 628,0 ming tonna avtomobil benzini (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 9,8 % ga ko'paygan), 174,8 ming litr uzum vinosi (36,8 % kamaygan), 3 610,6 ming litr aroq mahsulotlari (3,0 m ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar-avgust	2022- yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Mazut, ming t.	52,2	53,7	1,5
O'simlik yog'i (tozalangan), t	5 312,0	3 447,0	- 1 865,0
Paxta tolasi, t	51 237,0	40 750,0	- 10 487,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	57 096,4	51 383,0	- 5 713,4
Paxta chigiti, t.	74 714,0	58 220,0	- 16 494,0

Metallurgiya sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi esa 115,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,3 % gacha ko'tarilib, fizik hajm indeksi esa, 92,1 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 52,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 6,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 88,4 % ni va ishlab chiqarish hajmi 745,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat, ichimliklar mahsulotlarini ishlab chiqarish sanoati

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 18,3 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 111,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,4 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 101,0 % ga va ishlab chiqarish hajmi 2 461,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida asosiy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 108,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 63,5 % ni va ishlab chiqarish hajmi 5,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 22,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 112,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 104,0 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 3 398,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallar, qoq'oz va qoq'oz mahsulotlari, mebel ishlab chiqarish


2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra mahsulotlarni ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 130,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 85,2 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 155,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 61,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,0 % ni, fizik hajm indeksi 100,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 318,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 41,5 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 75,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 44,4 % ni, fizik hajm indeksi 105,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 7 091,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish

2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 211,6 %.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 53,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 659,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 209,5 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 117,2 mlrd.so'mni (jami sanoat mahsulotlarining hajmining 0,7 % ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-avgust	2022-yil yanvar-avgust	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	12 070,5	12 229,9	159,4
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln. so'm	324,6	392,6	68,0

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 1,3 % va axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 20,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6 137,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-avgust oylari mos davriga nisbatan 110,2 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,4 % ni tashkil

Oziq-ovqat mahsulotlari



2022- yilning yanvar-avgust oylarida viloyatida 2 133,1 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 6,4 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan viloyat bo'yicha o'rtacha iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda Romitan tumani (140,6 %), Olot tumani (119,4 %), Buxoro shahar (112,2 %) va Peshku tumani (109,9 %) korxonalari tomonidan yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 34,8 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 65,2 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 36,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 63,6 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 106,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 112,4 % ni tashkil etdi.



Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (24,7 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (18,5 %) ni, G'ijduvon tumani (11,0 %) ni, Jondor tumani (7,9 %) ni tashkil etdi.



Buxoro viloyati

3 901,8 mlrd. so'm


2020- yil yanvar-avgust

5 103,1 mlrd. so'm

2021- yil yanvar-avgust

6 137,6 mlrd/ so'm

2022- yil yanvar-avgust



2020- yil

96,3 %

2021- yil



123,4 %

2022- yil

110,2 %

Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumaniga to'g'ri kelib, (37,2 %) ni shuningdek, Buxoro shahri (17,0 %) ni, G'ijduvon tumani (12,1 %) ni, Kogon tumani (5,6 %) ni tashkil etdi.





Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi



Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati



Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, (21,1 %) ni, Jondor tumani (15,0 %)ni, Kogon tumaniga esa (9,4 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Buxoro viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari




Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qorovulbozor tumani to'g'ri kelib, (47,3 %) ni, shuningdek, Buxoro shahriga (11,6 %) ni, G'ijduvon tumani esa (6,5 %) ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Qorovulbozor tumani (394 186,6 ming so'm), Kogon tumani (10 777,5 ming so'm) hamda Kogon shahrida (8 472,1 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (8 051,5 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.





Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 3 094,2 ming so'm bo'lgani holda, Qorovulbozor tumanida – 79 183,7 ming so'mni, Kogon tumanida – 5 198,7 ming so'mni, Buxoro shahrida – 3 979,5 ming so'mni tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 5 792,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.



■ ulushi, % da
■ mlrd. soʻm



Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari



Bugungi kunda viloyatda 4 970 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 260 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining (25,4 % i) Buxoro shahriga, 608 tasi (12,2 % i) G'ijduvon tumaniga, 390 tasi (7,8 % i) Kogon tumaniga, 374 tasi (7,5 % i) Buxoro tumaniga, 366 tasi (7,4 % i) Jondor tumaniga, 358 tasi (7,2 % i) Romitan tumaniga, 292 tasi (5,9 % i) Shofirkon tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



 yangi tashkil etilgan
 faoliyat yuritayotgan